IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341

VOL–2, ISSUE–1
https://wordlyknowledge.uz/

Lingvistik ekspertiza

Xurramova Umida Abdiqodirovna

Termiz davlat universiteti

Amaliy filologiya yo‘nalishi

1-kurs 222-guruh talabasi

Annotatsiya: Bugungi kunda lingvistik ekspertiza sohasi va undagi rivojlanishlar. Bugungi kun bilan birga o‘zgarishi. Hayotimizdagi ahamiyati. Jahon va O‘zbek lingvistik ekspertizasi faoliyati. Qonuniy himoyasi.

Kalit so‘zlari:Lingvistik ekspertiza,Yansvard Vik,matn lingvistik ekspertizasi, huquqbuzarlik,jinoiy javobgarlik,obro‘sizlantirish,ekspert,annonim matn.

Аннотация:Областъ лингвистической эксертизы сегодня и ее развитие. Измениться с сегодняшнего дня. Значение в нашей жизни. Деятельность мировой и узбекской лингвистической экспертизы. Законная защита.

Ключевые слова:Лингвистическая експертиза,Янсворд Вик, Лингвистическая експертиза текста,преступление,уголовная ответственность,диффаматция,експерт,анонимный текст.

“Ekspertiza” atamasi (Lotin Expertus-dan olingan bo‘lib mutaxassis) “tajribali bilimdon,sinovdan o‘tgan” kabi ma’nolarni anglatadi. Ekspertiza deganda vakolatli shaxslar tomonidan davlat,jamoat tashkilotlari,ayrim fuqarolarning manfaatlari bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda olib boriladigan tadqiqotlar nazarda tutuladi. Lingvistik ekspertologiya-o‘z yechimini topmagan muammoli matnlar bo‘yicha lingvistik ekspertiza metodlari orqali tahlil qilish va baholash natijasida ekspertning yozma tarzda xulosa berishini ifodalaydigan protssesual tartibga solish vositasi sanaladi.

Ekspertiza tushunchasi keng ma’nodagi tushunchalar sirasiga kiradi. Asosan biz ekspertiza deganda ko‘proq tibbiy ekspertizani tushunar edik. Qachonki lingvistik ekspertiza tushunchasi kirib kelishidan oldin. Ushbu termin dastavval Londonda qo‘llanilgan. 1968-yilda shved tilshunosi Yansvard Vik tomonidan dunyoda ilk ushbu termin qo‘llanilgan.

Lingvistik ekspertiza sohasi ham ekspertiza sohasi kabi qaralgan. Lingvistik ekspetiza sohasining eng rivojlangan davlati bu bevosita Rossiya hisoblanadi. Hamda ushbu hudud ta’lim muassasalarida ham lingvistik ekspetiza bo‘yicha ta’lim yo‘nalishlarining mavjudligi buning yorqin dalili hisoblanadi.

To‘g‘ri ushbu soha O‘zbekistonda mustaqillikka erishganligimizdan so‘ng rivoj topdi. Ammo hali hamon izlanishlar katta. Lingvistik ekspertiza sohali haqidagi ilk qarashlarni andijonlik fan doktori professor Shohida Shahobiddinova o‘zining 2013-yil 13-iyunda chiqarilgan“Ma’rifat”gazetasida ushbu sohaning mavjudligi yutuqlari haqida qisqacha bayon etib o‘tgan. Undan ko‘rinadiki ushbu soha O‘zbekiston uchun zarurligi,ochilmay qolgan ba’zi bir qo‘shtirnoq ichidagi jinoyatlarning ochilishi uchun yordam beradi. Bizning kundalik hayotimizga singishib ketgan ba’zi bir qo‘pol va dag‘al so‘zlar aslida biznig shaxsiy huquqimizning toptalishi bilan belgilanadi. Biz esa ushbu kamchilliklarga ham ko‘z yumub kelmoqdamiz. Natijada shaxsiy huquq va erkinliklarimizga putur yetib qolmoqda. Ushbu soha bo‘yicha o‘sha yilning o‘zida(2013-yilda) Toshkentda Hadicha Sulaymonova nomidagi Sud-Lingvistik ekspertizasi markazi tashkil etildi. Hamda ushbu markaz o‘n ikkidan ortiq tarmoqlarni qamrab olgan holda faoliyat olib bormoqda. O‘sha tarmoqlarning lingvistik yo‘nalishi haqida tanishadigan bo‘sak,u bevosita ikki jarayonni o‘z ichiga oladi(og‘zaki va yozma).

Og‘zaki bu audio,ovozli xabar yoki sud jarayonidagi og‘zaki obro‘sizlantirish. Yozma shaklga esa matnli xabarlar,e-mail,xat va shu kabi yozma murojaatlar kiradi.

Sud lingvistikasi quyidagi masalalarni o‘rganishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan:

1.Muayyan matnning muallifini aniqlash.

2.Matndagi so‘z va jumlalarning aktual mazmunini tiklash.

3.Yuridik Sistema va jamiyat orasidagi munosabatlarning lingvistik aspektlarini tahlil qilish.

4.Diskursning yuridik ahamiyatga ega tiplarini aniqlash.

5.Sud jarayonidagi tarjima yoki ushbu jarayonning boshqa lingvistik muammolarini hal etish.

Ushbu jarayonda qayt etib o‘tilganlar sud lingvistik ekspertizasining ilk na’munalaridir. Lingvistik ekspertizaning bugungi kunda juda katta faoliyatini jalb etayotgan bosqichi bu anonim(muallifi mavjud bo‘lmagan matn) xatlar hisoblanadi. Bir shaxs ikkinchi bir shaxsning ustidan yozilgan xatlar ushbu jarayonda mujmallikni yuzaga keltirmoqda. Ushbu jarayonda matn muallifi matn qaratilgan shaxsni qay darajada obro‘sizlantirganligi bo‘yicha tahlillar olib boriladi. Yozma matnlar ikki asosiy shaxs ishtirok etadi:1. Hujjat muallifi,2. Xat ichrochisi; bu ikki subyektni aniqlash orqali matn maqsadi haqida bilish mumkin. Ikki shaxsning biri xatning yozilishiga sababchi bo‘lgan,bosim va tazyiq ostida yozdirgan muallif bo‘lsa,ikkinchisi esa ta’sir ostida qo‘lda yozgan shaxs hisoblanadi.

Yozma matnlarning xilma-xilligi,turlari va ularning mazmuniga qaramay ularni o‘rganish davomida tipik vazifalar bajariladi;

1.Hujjatni ashyoviy dalil sifatida aniqlash va olib qo‘yish faktini to‘g‘ri protsessual ro‘yxatdan o‘tkazish;

2.Hujjatni uning tavsifi,fotosurati video,raqamli skanerlash;

3.Asosiy xususiyatlarini,sifatlarini aniqlash(tanlassh,baholash) hujjatning uning turi(xususiy,rasmiy),maqsadi,kelib chiqishi,mansubligi,rekvizitlarning mavjudligi,hujjat shakli va mazmuni,tashqi ko‘rinishi va holatiga muvofiqligi;

4.Harflarning topografik xususiyatlarini aniqlash(joylari butun matn yoki uning alohida qisimlari);

5.Qo‘lyozmalar matnlarning umumiy xususiyatlarini aniqlash.

Shuning bilan birga uning xati sinchkovlik bilan tekshiriladi va natijada undagi leksik,Grammatik,uslubiy,sintaktik va shu kabi taraflari orqali matn muallifi va jinoyatchi aniqlanadi. Ushbu jarayon lingvistik ekspertizadagi ananim xatlar biln bog‘liq holdagi masalasi hisoblanadi. Shu bilan birga o‘zbek matnlarining lingvistik ekspertizasini o‘tkazish jarayonlari ham mavjud. Bu deganda biz bilshimiz zarurki matn deganda badiiy asar matnlarinigina emas balki yuridik matn tiblarini ham nazarda tutishimiz zarur. O‘zbek yozma mtnlarini lingvistik ekspertizadan o‘tkazishda etnik xoslik va mentalitet kabi tushunchalarga ega bo‘lishimiz kerak. Chunki unda vulgar elementlar,efemik vositalar baho jihatdan bir biridan farq qiladi. Qonuniy hujjatlar matnidagi haqorat va sha’niga putur yetkazadigan jumlalarni qo‘llash qonuniy jihatdan himoyalanib qo‘yilgan va ushbu so‘zlardan foydalanganlar qonuniy quyidagi holatlardagi jarimalarga tortilgan:

1. jarima;

2. ma’muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo‘lgan ashyoni haqqini to‘lash sharti bilan olib qo‘yish;

3. ma’muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo‘lgan ashyoni musodara qilish;

4. muayyan shaxsni muayyan huquqdan mahrum etish;

5. ma’muriy qamoqqa olish.

Shuning bilan bir qatorda jahon lingvistik ekspertlarining fikri bilan tanishish ham yanada

oydinlik ko‘rsatadi. K.I.Brinev fikriga ko‘ra, Sud lingvistik ekspertizasida-ekspertga qo‘yilgan savollardan kelib chiqqan holda haqiqat yoki yolg‘onlikni,imkoniyat yoki mavjudlik emaslikni tekshirish mumkin. N.A.Baranovning fikriga ko‘ra, haqorat qilishning jinoiy javobgarlik ekanligi shubha ostiga qo‘yiladi. Ushbu mulohazalar orqali lingvistik ekspertizaning maqsadi masalasi biroz oydinlashadi. Maqsadi-maxsus filologik bilimlarga asoslanib isbotlanadi va lingvistik ekspertning bilim va sinchkovligini nazarda tutadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak lingvistik ekspertiza orqali lingvistik ekspertning vakolat chegaralari aniqlanadi va yechilishi kerak bo‘lgan masalalarga oydinlik kiritiladi. O‘zbekistonda ham ushbu soha hali yangi ,endigina 9-10 yil bo‘ldi. Shu sababli ham bugungi kunda ushbu sohada izlanishlar keng tarzda amalga oshirilayabdi. Bu bo‘lsa yuridik va jismoniy shaxslarning huquqiy faoliyatini mustahkamlab qo‘yish bilan belgilanmoqda. Shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-oktyabrdagi 662-sonli qarori bilan huquqiy himoya ostiga olingan. Normativ huquqiy hujjat loyihasida lingvistik ekspertiza o‘tkazish tartibi bo‘yicha nizom ishlab chiqilgan bo‘lib bu 6 bob 21 moddani o‘z ichiga oladi.

Yuqoridagi biz tahlil etgan lingvistik ekspertiza masalalari bevosita hayotimiz bilan uyg‘un holda yuzaga keladi. Biz ushbu sohada ko‘proq yozma masalalarga duch kelamiz va bu bizning lingvistik bilimimizni taqozo etadi. Turli ko‘rinishdagi xat va xabar matnlari ochilmay qolgan masala,muammo hattoki davlat ichki sir va masalalarini ham o‘z qamroviga oladi. Bugungi kunda eng ko‘p tarqalgani biz yuqorida tanishgan annonim xatlar xisoblanadi. Uning yozilishidan maqsad:biron bir mansabdor shaxsning mol-mulki shaxsiy huququni toptash bilan belgilanadigan jarayonlar bilan aniqlanadi. Shaxsiy imzolarning qalbakilanishi bugungi kunda bank,moliya sohasida katta chigalliklarni yuzaga keltirmoqda. Shu sababli ham biz ushbu jarayonlar yuzasidan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lshimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xolmatova G. Lingvistik ekspertizada grafalogiyaning roli//Scientific Journal Impact Factor ISSN 2181-1784 VOL 1,ISSUE 3,2021.

2. 22.09.1994. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. (n.d.). Lex.Uz. Retrieved December 21,2020,from https://lex.uz/ru/docs/-97664.

3. E-mail: info@marifat.uz